

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLIQOVA RUXSORA SANJAROVNA

SANOAT KLASTERLARI IQTISODIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHLARI
(Paxta-to'qimachilik klasterlari misolida)

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract

Xoliqova Ruxsora Sanjarovna

Sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligini ta`minlashning metodologik jihatlari (Paxta-to`qimachilik klasterlari misolida) 3

Холикова Рухсора Санджаровна

Методологические аспекты обеспечения экономической устойчивости промышленных кластеров (На примере хлопково-текстильных кластеров) 31

Kholikova Rukhsora Sanjarovna

Methodological aspects of ensuring the economic sustainability of industrial clusters (In the case of cotton-textile clusters) 61

E`lon qilingan ishlar ro`yxati

Список опубликованных работ

List of published works 65

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOLIQOVA RUXSORA SANJAROVNA

SANOAT KLASTERLARI IQTISODIY BARQARORLIGINI
TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHLTLARI
(Paxta-to'qimachilik klasterlari misolida)

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/Iqt741 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Maxmudov Nosir Maxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Saidaxror Saidahmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Tursunxodjayev Marat Lutfullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nazarova Fotima Xakimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "22" 05 soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-66, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (100066 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-66, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.E. Sindarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
i.f.d., professor

J.S. Fayzullaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

T.S. Qo'chqorov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hududiy raqobatbardoshlikni mustahkamlab, ishlab chiqarishning uzluksizligi va qiymat zanjirlari samaradorligi orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratishni tezlashtiradi. Barqaror klaster muhiti korxonalar o'rtasida kooperatsiya, ixtisoslashuv va bilimlar tarqalishini kuchaytirib, innovatsiya va mahsuldorlik o'sishini rag'batlantiradi hamda tranzaksion xarajatlarni pasaytiradi. Shuningdek, klasterning institutsional barqarorligi (infratuzilma, standartlar, umumiy servislari, logistika) tashqi shoklar sharoitida ta'minot uzilishlari va bozor tavakkalchiliklarini yumshatib, investitsiyalarni jalb etish uchun ishonchli muhit yaratadi. Xalqaro manbalarga ko'ra, "dunyo bo'ylab 10 mingdan ortiq sanoat klasterlari mavjud bo'lib, ular yirik aglomeratsiyalar va kichik sanoat birlashmalarini o'z ichiga oladi, bu esa global iqtisodiy tarmoqlarda klasterlarning keng qamrovli ahamiyatini tasdiqlaydi"¹. Shu bois sanoat klasterlari barqarorligining institutsional mexanizmlari va iqtisodiy natijalarga ta'sir kanallarini ilmiy tadqiq etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hozirgi kunda butun dunyoda sanoat klasterini rivojlantirishning fundamental tamoyillarini o'rganish va ularning milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. O'z navbatida, mazkur tarmoq rivojiga asosiy to'siq bo'layotgan muammo va tahdidlarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali paxta-to'qimachilik sanoati samaradorligini oshirish bu boradagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Zamonaviy iqtisodiyot global beqarorlik, kuchaygan raqobat, sanksiyalar bosimi, texnologik o'zgarishlar va geosiyosiy keskinlik bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy barqarorlik masalasi, ayniqsa, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarish va innovatsiyalarning o'zagini tashkil etuvchi strategik tuzilmalar – sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligi dolzarb bo'lib bormoqda.

O'zbekistonda sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha, avvalo, klaster ishtirokchilarining kooperatsiyasi va mahalliyashtirishini kuchaytirish, muhandislik-kommunikatsiya hamda yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini orqali investitsiya va eksport salohiyatini oshirish vazifalari belgilangan. Amalda bu yo'nalishda davlat siyosati institutsional jihatdan mustahkamlanib, sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlarini muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarish zanjirlarini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, "Agentlik ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish, bozor mexanizmlarini joriy etish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul bo'ladi"². Shu bilan birga, rasmiy statistika klasterlar iqtisodiy faolligining ko'lamini ko'rsadi: 2025 yilda klasterlar bo'yicha sanoat mahsuloti (QQS va aksizsiz) hajmi, investitsiyalar va boshqa ko'rsatkichlar tizimli hisobda yuritilmoqda³. Bundan ko'rinadiki, mazkur vazifa va chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish uchun klaster barqarorligining institutsional mexanizmlari,

¹ Manba: World Economic Forum. https://netl.doe.gov/sites/default/files/netl-file/22CM_GS_Stark.pdf?utm_source

² "Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari" https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/sanoat_kooperatsiyasi_va_davlat_haridlari_yagona_boshqaruv_ostida?utm_source.

³ https://stat.uz/img/news/miz_uz_p55913.pdf?utm_source. "Maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va ..."

moliyaviy-iqtisodiy drayverlari va KPI natijadorligini baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 26-yanvardagi PQ-23-son “Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 10-noyabrdagi PQ-2-son “Paxta xom ashyosi yetishtirish va uning yig‘im-terim xarajatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 14-dekabrdagi PQ-5285-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2016-yil 28-noyabrdagi PQ-3408-son “Paxta sanoatini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2016-yil 21-dekabrdagi PQ-2687-son “To‘qimachilik va kiyim-kechak va trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2019-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabrdagi 733-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”, 2020-yil 22-iyundagi 397-son “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 19-sentabrdagi 744-son “Paxta va to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 25-yanvardagi 53-son “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishiining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Dissertatsiya ishi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴. Sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning metodologik jihatlari bo‘yicha

⁴ Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи қуйидаги манбалар асосида тайёрланган: UN Industrial Development Organization (UNIDO) – <https://www.unido.org>, UN Economic and Social Council (ECOSOC) – <https://www.un.org/ecosoc>, World Bank – <https://www.worldbank.org>, International Monetary Fund (IMF) – <https://www.imf.org>, World Trade Organization (WTO) – <https://www.wto.org>, Organization for Economic Cooperation and Development (OECD) – <https://www.oecd.org>, International Organization for Standardization (ISO) – <https://www.iso.org>, Organization for Security and Co-operation in Europe (OSCE) – <https://www.osce.org>, Asian Development Bank (ADB) – <https://www.adb.org>, European Commission – <https://ec.europa.eu>, European Cluster Observatory (Cluster Collaboration Platform) – <https://clustercollaboration.eu>, Economic Cooperation Organization (ECO) – <https://www.eco.int>, СНГ (Commonwealth of Independent States, CIS) – <http://www.e-cis.info>, Digital Cooperation Organization – <https://www.dcointernational.org>, BRICS – <https://infobrics.org>, World Alliance of International Financial

ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi xalqaro, mintaqaviy tashkilotlari va ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari, jumladan, BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO), BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon savdo tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Xalqaro standartlashtirish tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ECO), Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa komissiyasi, Yevropa klaster kuzatuv, BRIKS, Jahon iqtisodiy forumi, AIRMIC, Yevropa risklarni boshqarish assotsiatsiyalari federatsiyasi, Brukings instituti (AQSH), Kembrij universiteti (Buyuk Britaniya), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Shimoliy Karolina shtat universiteti (AQSH), Riga Stradinsh universiteti (Latviya), Daugavpils universiteti (Latviya), Polotsk davlat universiteti (Belarus), Massachusetts Louell universiteti (AQSH), Ural federal universiteti (Rossiya), Rossiya xalqlar do'stligi universiteti, shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan amalga oshirilmoqda.

Sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning metodologik jihatlari bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarda qator, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: iqtisodiy barqarorlik va biznes muhitini baholash indikatorlari ishlab chiqilgan (World Bank); iqtisodiy barqarorlik va global raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlik asoslangan (Peterson Institute for International Economics, AQSH); klasterlar faoliyatida innovatsion yondashuvlar orqali barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari takomillashtirilgan (Montpellier Business School, Fransiya); risklarni boshqarish va barqarorlikni baholashning institusional yondashuvlari shakllantirilgan.

Dunyoda sanoat klasterlari iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning metodologik jihatlari bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: klasterlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish; innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali raqobatbardoshlikni kuchaytirish; eksport salohiyatini kengaytirish; sanoat klasterlarini raqamli transformatsiya qilish; qiymat zanjirini shakllantirish va strategik boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish.

Centers (WAIFC) – <https://waifc.finance>, International Cotton Advisory Committee (ICAC) – <https://www.icac.org>, AIRMIC (The Association of Insurance and Risk Managers in Industry and Commerce) – <https://www.airmic.com>, World Economic Forum – <https://www.weforum.org>, World Economics Association – <https://www.worldeconomicsassociation.org>, European Association for Comparative Economic Studies (EACES) – <https://eaces.eu>, Federation of European Risk Management Associations (FERMA) – <https://www.ferma.eu>, The Risk Management Society (RIMS) – <https://www.rims.org>, Institute of Risk Management (IRM) – <https://www.theirm.org>, The Center for Economic Security and Opportunity of The Brookings Institution – <https://www.brookings.edu>, University of Cambridge – <https://www.cam.ac.uk>, University of Oxford – <https://www.ox.ac.uk>, North Carolina State University – <https://www.ncsu.edu>, Riga Stradiņš University – <https://www.rsu.lv>, Daugavpils University – <https://du.lv>, Полоцкий государственный университет – <https://www.psu.by>, University of Massachusetts Lowell – <https://www.uml.edu>, Ural Federal University – <https://urfu.ru>, Российский университет дружбы народов – <https://www.rudn.ru>, Cluster Innovation Centre, University of Delhi – <https://ducic.ac.in>, Seoul National University – <https://en.snu.ac.kr>, University of Malta – <https://www.um.edu.mt>.

Tadqiqotning o`rganilganlik darajasi. Klasterlarning shakllanishi va faoliyati, shuningdek, korxonalarining raqobatbardoshligini boshqarishda ushbu usulni tatbiq etish masalalari xorijiy iqtisodchi olimlar, jumladan A.Marshall, M.Porter, A.Veber, S.Rozenfeld, P.Krugman, D.Sole, E.Daxman va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁵.

MDH olimlari orasida taniqli tadqiqotchilar A.N.Oleynik, N.V.Smorodinskaya, D.D.Katukov, E.G.Karpova, I.N.Kolosovskiy, E.V.Ivanova, A.A.Nastin, Y.V.Yaremenko, A.Shastitko va boshqalarning tadqiqoti e`tiborga molik⁶.

O`zbekiston paxta-to`qimachilik sanoatida klasterli yondashuvni targ`ib qilish bo`yicha tadqiqotlar S.S.Gulyamov, M.L.Tursunxo`jaev, F.X.Nazarova, N.M.Maxmudov, B.T.Salimov, R.A.Isaev, S.N.Yuldashev, G.R.Madrahimova, M.A.Rahmatov, S.M.Qosimov, G.G.Umarova, Z.A.Xakimov, R.A.Gulyaev, va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan⁷.

Mavjud tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo`lishiga qaramay, ular fragmentar xususiyatga ega bo`lib, asosan iqtisodiy barqarorlikni tartibga soluvchi bir yoki bir nechta mexanizmlarni alohida ko`rib chiqish bilan cheklanadi. Bu esa klaster asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishning texnologik zanjiri doirasida xo`jaliklararo aloqalar shakllanayotgan zamonaviy sharoitlarda iqtisodiy barqarorlikni ta`minlash masalalari bo`yicha qo`shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, ta`kidlash lozimki, hozirgi kunga qadar sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta`minlashning ayrim muhim jihatlari yetarli darajada chuqur o`rganilmagan. Jumladan, O`zbekistonda paxta-to`qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan kompleks ilmiy tadqiqotlar ham yetarli darajada amalga oshirilmagan. Bu holat mazkur muammoning dolzarbligini yana-da kuchaytiradi hamda uni hal etishning optimal ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

⁵ Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3-х томах. – М.: Издательская группа “Прогресс”, 1993г. 594 стр., М.Е. Porter. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990г. 495стр., S.A. Rosenfeld, Bringing business clusters into the mainstream of economic development//European planning studies. – 1997-№5-Р.3-23., Дахмен Е. Предпринимательская деятельность и развитие шведской индустрии. – Стокгольм, 1950.

⁶ Смородинская Н.В., Малыгин В.Е., Катукоев Д.Д. Как укрепить конкурентоспособность в условиях глобальных вызовов: кластерный подход. – Москва: Институт экономики, 2015г. 10 стр., Карпова Е.Г. Сущность и структура экономического кластера. Научно-технические ведомости СПбГПУ2,2011, Экономические науки. 62 стр., Иванова Е.В. О факторах эффективности кластеризации экономики региона. // Экономические науки. 2012. № 9. С. 101-104.

⁷ Рахматов М.А. Совершенствование формирования и распределения прибыли в хозяйствах АПК: автореферат дис.канд. экон. наук: 08.00.01 / Ленингр. фин.-экон. ин-т им. Н.А. Вознесенского. – Ленинград, 1989. – 18 с., Турсунходжаев М.Л. Совершенствование материального стимулирования в хлопчатобумажной промышленности. – Ташкент, 1967., Махмудов Н.М. Моделирование производственно-экономических процессов хлопково-перерабатывающих отраслей. Монография. – Т.: Фан, 1994г, 184 с , Бекмурадов А.Ш., Янг Сон Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана. Кластерный подход. – Т., 2006. – 247 с., Курбанова Д.М. Перспективы формирования инновационных кластеров в Узбекистане. // “Рынок, деньги и кредит”. – 2011 – №1. – С. 43.; Мирзахалилова Д.М. Повышение конкурентоспособности промышленности Узбекистана на основе кластеризации (на примере текстильной промышленности). Дисс. на соиск. канд. экон. Наук, Г.Э. Захидов. Эффективность кластерной организации и управления в легкой промышленности Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2017, Гуляев Р.А., Лугачев А.Е., Усманов Х.С. Современное состояние производства, переработки, потребления и качества хлопковой продукции в ведущих хлопкосеющих странах мира. – Ташкент: “Paxtasanoat ilmiy markazi” АЖ, 2017, с.171

Tadqiqot mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-8023082021-sonli "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti asosida "Mamlakat risklarini tasniflash tizimi"da o'z o'rnini baholash uchun "Milliy model"ni ishlab chiqish" (2024-y.) nomli ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning metodologik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

paxtachilikda klasterlash jarayonini o'rganish asosida klaster nazariyasining ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish, ularning mohiyatini ochib berish;

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflash va ilmiy asoslash;

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning uslubiy jihatlarini takomillashtirish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar amaliyotini o'rganish;

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning institutsional asoslari va tamoyillarini o'rganish, tahlil qilish va institutsional asoslarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash metodologiyasining kontseptual va fundamental tamoyillarini takomillashtirish;

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholashning indikativ ko'rsatkichlari asosida kompleks tahlil va diagnostika metodologiyasini ishlab chiqish;

sanoat klasterlari faoliyatida yuzaga keladigan xavf va tahdidlarni tasniflash;

O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni hal etishga qaratilgan ilmiy takliflarni ishlab chiqish;

paxta-to'qimachilik klasterlarini iqtisodiy barqarorligini ta'minlash asosida rivojlanishining prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekistondagi paxta-to'qimachilik klasterlarining faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tizimli yondashuv usullari, mantiqiy va empirik tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, grafik tahlil, SWOT tahlili, statistik, korrelyatsion va regressiya tahlili (VAR), iqtisodiy va matematik tahlil, prognozlash usullarini qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash uslubi moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, axborot, innovatsion va ekologik kabi tarkibiy qismlarni o'zida mujassamlashtirgan integrallashgan indikatorlar kompleksini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

paxta-to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligi darajasini baholash uslubiyoti me'yorlashtirilgan shkala bo'yicha "kritik" ($0,0 < IB_k \leq 0,12$), "past"

($0,13 \leq IB_p \leq 0,30$), “o‘rtacha” ($0,31 \leq IB_o \leq 0,65$), “barqaror” ($0,66 \leq IB_b \leq 0,85$) hamda “yuqori” ($0,86 \leq IB_yu \leq 1,0$) miqdoriy chegaralarini belgilash asosida takomillashtirilgan;

paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi risklarni kompleks baholashda 5×5 risklar matritsasini qo‘llashning tarmoq xususiyatlari, tarmoqlararo hamkorlik darajasi, institutsional shart-sharoitlar hamda mintaqaviy nomutanosibliklarni hisobga oluvchi hamda “qabul qilinadigan daraja” (1 – 4), “qoniqarli daraja” (5 – 9), “yo‘l qo‘yiladigan daraja” (10 – 16), “qabul qilib bo‘lmaydigan daraja” (17 – 25) miqdoriy qiymatlari orqali baholashni ko‘zda tutuvchi moslashtirilgan yondashuv taklif etilgan;

paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash algoritmi “sanoat tarmog‘ining boshqa yetakchi klasteri orasida eng yaxshi samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash” blokini kiritish orqali klaster iqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlarining “minimal zarur qiymatlari”ni aniqlash va “haqiqiy qiymat” bilan o‘zaro taqqoslash asosida takomillashtirilgan;

paxta-to‘qimachilik klasterlari rivojlanishiga ta’sir etuvchi ustuvor omillarning ta’sirining regression tahlili asosida ishlab chiqarish hajmining o‘rta muddatli istiqboldagi o‘zgarishlarini baholash uchun inersion, optimistik va pessimistik ssenariylar bo‘yicha 2028-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash konsepsiyasi ishlab chiqilgan;

sanoat klasterining iqtisodiy barqarorligi darajasini kompleks tahlil qilish va diagnostika qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan;

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash tizimi moliyaviy, ishlab chiqarish, innovatsion, mehnat, axborot va ekologik barqarorlik kabi asosiy tarkibiy qismlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan;

sanoat klasterlarida axborot barqarorligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar, jumladan kiberxavflarni kamaytirish va raqamli infratuzilma xarajatlarini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

O‘zbekistonda sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash bo‘yicha tabaqalashtirilgan chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi hududiy yo‘l xaritalari ishlab chiqilgan;

ekonometrik model asosida o‘rta muddatli istiqbolda (2026-2028) sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligining o‘shish ssenariylari, jumladan, realistik, pessimistik va optimistik ssenariylar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalarining ishonchliligi statistik ma’lumotlar manbalaridan foydalanish bilan ta’minlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, shuningdek ayrim normativ-huquqiy hujjatlar, tegishli idora va tashkilotlarning hisobotlari hamda qo‘llanilgan usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy jihatdan asoslanganligi tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi boshqaruv organlari, hokimliklar hamda paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan sanoat klasterlari, xususan paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash strategiyasini takomillashtirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning amaliy tavsifdagi xulosa va takliflaridan klasterlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat hokimiyati organlari tomonidan sanoatni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy va o‘rta ta‘lim muassasalarida talabalarga ta‘lim berish jarayonida, qishloq xo‘jaligi tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirishda, davlat boshqaruvi organlari xodimlari hamda tarmoq raqobatbardoshligini klaster yondashuvi asosida oshirish muammolari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy xodimlar faoliyatida ham foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy etilishi. Paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash uslubi moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, axborot, innovatsion va ekologik kabi tarkibiy qismlarni o‘zida mujassamlashtirgan integrallashgan indikatorlar kompleksini ishlab chiqish orqali takomillashtirish bo‘yicha taklif “Fergana Global Textile” MChJ, “Oqsaroy Klaster” MChJ va “Buxoro Zarhal Teks” MChJ faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-avgustdagi №13/06-08-9862-sonli, O‘zbekiston Respublikasi O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2026-yil 27-martdagi №01/06-466-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida paxta-to‘qimachilik klasterlarida 2024-yilda realizatsiya qilingan mahsulot hajmi 2022-yilga nisbatan mos ravishda 4,9 %, 1,7% va 2,2 % ga oshganligi aniqlangan;

paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligi darajasini baholash uslubiyoti me‘yorlashtirilgan shkala bo‘yicha “kritik” ($0,0 < IB_k \leq 0,12$), “past” ($0,13 \leq IB_p \leq 0,30$), “o‘rtacha” ($0,31 \leq IB_o \leq 0,65$), “barqaror” ($0,66 \leq IB_b \leq 0,85$) hamda “yuqori” ($0,86 \leq IB_yu \leq 1,0$) miqdoriy chegaralarini belgilash asosida takomillashtirish taklifi “Fergana Global Textile” MChJ, “Oqsaroy Klaster” MChJ va “Buxoro Zarhal Teks” MChJ faoliyatida iqtisodiy barqarorlikni baholash jarayonida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-avgustdagi №13/06-08-9862-sonli, O‘zbekiston Respublikasi O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2026-yil 27-martdagi №01/06-466-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida respublikadagi iqtisodiy jihatdan beqaror klasterlar aniqlanib, ularning barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi risklarni kompleks baholashda 5×5 risklar matritsasini qo‘llashning tarmoq xususiyatlari, tarmoqlararo hamkorlik darajasi, institutsional shart-sharoitlar hamda mintaqaviy nomutanosibliklarni hisobga oluvchi hamda “qabul qilinadigan daraja” (1 – 4), “qoniqarli daraja” (5 – 9), “yo‘l qo‘yiladigan daraja” (10 – 16), “qabul qilib

bo‘lmaydigan daraja” (17 – 25) miqdoriy qiymatlari orqali baholashni ko‘zda tutuvchi moslashtirilgan yondashuv taklifi “Fergana Global Textile” MChJ, “Oqsaroy Klaster” MChJ va “Buxoro Zarhal Teks” MChJ faoliyatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-avgustdagi №13/06-08-9862-sonli, O‘zbekiston Respublikasi O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2026-yil 27-martdagi №01/06-466-sonli ma‘lumotnomasi hamda tegishli joriy etish dalolatnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida klasterlarda yuqori riskli omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash algoritmi “sanoat tarmog‘ining boshqa yetakchi klasteri orasida eng yaxshi samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash” blokini kiritish orqali klaster iqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlarining “minimal zarur qiymatlari”ni aniqlash va “haqiqiy qiymat” bilan o‘zaro taqqoslash asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-avgustdagi №13/06-08-9862-sonli, O‘zbekiston Respublikasi O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2026-yil 27-martdagi №01/06-466-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholashning aniqlik darajasini oshirish imkoni yaratilgan;

paxta-to‘qimachilik klasterlari rivojlanishiga ta‘sir etuvchi ustuvor omillarning ta‘sirining regression tahlili asosida ishlab chiqarish hajmining o‘rta muddatli istiqboldagi o‘zgarishlarini baholash uchun inersion, optimistik va pessimistik ssenariylar bo‘yicha 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari O‘zbekiston Respublikasi paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida boshqaruv qarorlarini

qabul qilishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 29-avgustdagi №13/06-08-9862-sonli, O‘zbekiston Respublikasi O‘zto‘qimachilik sanoat uyushmasining 2026-yil 27-martdagi №01/06-466-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida strategik rejalashtirishni ilmiy asoslash, risklarni kamaytirish hamda tarmoq faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinib, ilmiy ma‘ruzalar ko‘rinishida taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya natijalari bo‘yicha jami 31 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 14 ta maqola, xalqaro jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, 16 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, jami 252 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va tadqiqotda qo'llanilgan usullar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligi mohiyati va mazmuni o'rganilgan, sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy xavf-xatarlar tasniflangan, sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholovchi ko'rsatkich va indikatorlar yoritilgan, shuningdek sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha xorijiy tajriba hamda uni O'zbekiston Respublikasi paxta-to'qimachilik sanoati sharoitida qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan.

Olimlarning “iqtisodiy barqarorlik” atamasiga bergan turli qarashlari va ta'riflarini umumlashtirgan holda shunday xulosa qilish mumkinki, klasterning iqtisodiy barqarorligi – bu uning iqtisodiy tizimining integral holati bo'lib, klaster ishtirokchilarining faoliyat barqarorligini saqlash, ichki va tashqi chaqiriqlarga moslasha olish, strategik va tijorat maqsadlarini samarali amalga oshirish hamda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Klasterning iqtisodiy barqarorligini batafsilroq baholash uchun turli formulalar yordamida hisoblangan bir qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ularning asosiylari quyida keltirilgan:

1. Moliyaviy ko'rsatkichlar.
2. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari
3. Mehnat ko'rsatkichlari
4. Axborot ko'rsatkichlari
5. Innovatsion ko'rsatkichlar
6. Ekologik ko'rsatkichlar

Birinchi blok moliyaviy ko'rsatkichlardan iborat bo'lib, ular klaster tarkibidagi korxonalarining barqarorligi va to'lov qobiliyatini aniqlashga yordam beradi. Eng muhim ko'rsatkichlar orasida likvidlik (joriy va tezkor), sotishdan olingan daromad, aktivlar va kapital, moliyaviy barqarorlik koeffitsienti, qarz yuki va o'zini o'zi moliyalashtirish qobiliyati bor. Bu parametrlar birgalikda klasterning o'z resurslarini samarali boshqarish va moliyaviy risklarga qarshi turish qobiliyatini aks ettiradi.

Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligi va foydalanish darajasini tavsiflaydi. Asosiy komponentlar sanoat ishlab chiqarish hajmi, quvvatlardan foydalanish, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish tannarxining tarkibi va texnologik ta'minot darajasidir. Ushbu ko'rsatkichlar uchun yuqori qiymatlar ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini va klasterning bozor talabini qondirish qobiliyatini ko'rsadi.


Keyingi muhim blok - bu klaster ishchi kuchining sifati va barqarorligini aks ettiruvchi mehnat ko'rsatkichlari. Bularga bandlik darajasi, kadrlar malakasi, kadrlar almashinuvi, ish haqi fondining xodimlarning umumiy soniga nisbati, ijtimoiy ta'minot darajasi kiradi. Ular klasterning mehnat salohiyatini jalb qilish, saqlab qolish va rivojlantirish qobiliyatini namoyish etadi.

Zamonaviy sanoat klasterlari rivojlangan axborot muhitisiz samarali faoliyat yurita olmaydi (Sanoat 4.0). Axborot ko'rsatkichlari bozor, moliyaviy va texnologik ma'lumotlarga kirish, raqamli platformalardan foydalanish, axborot infratuzilmasi barqarorligi, ishtirokchilar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi tezligi va hisobotlarning shaffoqligini o'z ichiga oladi.

Muhim yo'nalish – bu innovatsion faoliyatni baholash. Innovatsion ko'rsatkichlar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan xarajatlar ulushini, joriy qilingan innovatsiyalar sonini, texnologik yangilanish darajasini, korxonalarining innovatsion faolligini, ilmiy muassasalar bilan hamkorlik aloqalarining mavjudligini qamrab oladi. Ushbu ko'rsatkichlarning yuqori qiymatlari klasterning o'zgarishlarga moslashish, raqobatdosh ustunliklarni rivojlantirish va barqaror rivojlanish qobiliyatini ko'rsadi.

Nihoyat, klasterning atrof-muhitga ta'sirini aks ettiruvchi ekologik ko'rsatkichlar barqaror rivojlanishning ajralmas elementi hisoblanadi. Asosiy tarkibiy qismlarga zararli chiqindilar darajasi, energiya samaradorligi, qayta ishlangan chiqindilar hajmi, ekologik standartlarga rioya qilish va ekologik dasturlarda ishtirok etish kiradi.

Dissertatsiyaning "Sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning uslubiy jihatlari" deb nomlangan ikkinchi bobida sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash metodologiyasining kontseptual va fundamental tamoyillari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Unda sanoat klasterining iqtisodiy barqarorligi darajasini har tomonlama tahlil qilish va diagnostika qilish metodologiyasi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash parametrlari va vositalarini yaratish jarayonini boshqarishning modeli, sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini kompleks tahlil qilish uchun ekonometrik modellashtirish usuli tavsiflangan. Bu o'z navbatida strategik qarashlar, maqsad va vazifalarni, shuningdek, risklarni boshqarish mexanizmlarini o'z ichida mujassamlovchi konsepsiyani ishlab chiqish, amalga oshirish va klasterning raqobatbardoshligini mustahkamlash muhimligini anglatadi (1-rasm).



1-rasm. Sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash konsepsiyasi⁸

⁸ Muallif tomonidan tizimlashtirildi.

Yuqoridagi rasmda sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash konsepsiyasi xatarlarni boshqarish, barqarorlikni oshirish va rivojlanishni rag'batlantirish uchun strategik vosita ekanligi ko'rsatilgan. Uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha klaster ishtirokchilari va davlat organlari tomonidan muvofiqlashtirilgan harakatlar, zamonaviy tahliliy usullardan foydalanish, barqarorlikni doimiy monitoring qilish talab etiladi. Ushbu konsepsiyaning maqsadi sanoat klasterlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, risklarni minimallashtirish, ularning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoit yaratish orqali barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Konsepsiyani amalga oshirish natijasida sanoat klasterlarining ichki va tashqi tahdidlarga chidamliligini kuchaytirish, iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshligini oshirish, klaster doirasida texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish, aholi bandligi va hududdagi ijtimoiy barqarorlik darajasini oshirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish kabi maqsadlarga erishiladi.

Klasterning iqtisodiy barqarorligini har tomonlama baholash uchun muallif tomonidan operatsion barqarorlik darajasini hamda ichki va tashqi tahdidlardan himoyalash darajasini aks ettiruvchi besh pog'nali shkaladan foydalanish taklif etildi. Ushbu shkala quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi (1-jadval):

1-jadval

Standartlashtirilgan shkala asosida sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorlik darajasini baholash metodologiyasi⁹

Qiymat diapazoni	Iqtisodiy barqarorlik darajasi	Qisqacha tavsif
0,00 – 0,12	Kritik	Iqtisodiy barqarorlik juda past, klaster barqarorligi uchun yuqori xavflar.
0,13 – 0,30	Past	Barqarorlik yetarli emas, jiddiy tahdidlar va barqarorlik zaif.
0,31 – 0,65	O'rtacha (rivojlanayotgan)	Vaziyat asta-sekin yaxshilanmoqda; xavf-xatarlar mavjud, ammo taraqqiyotga erishilmoqda.
0,66 – 0,85	Barqaror	Barqarorlik darajasi yetarli, klaster barqaror ishlaydi va asosiy xavflarni boshqaradi.
0,86 – 1,00	Yuqori	Barqarorlik yuqori, xavflar minimal, klaster esa barqaror va raqobatbardoshdir.

1. Kritik daraja – chuqur moliyaviy va iqtisodiy beqarorlik, to'lov qobiliyatini yo'qotish, salbiy rentabellik, bankrotlik xavfining yuqoriligi, ichki va tashqi tahdidlarga dosh bera olmaslik bilan tavsiflanadi. Ushbu darajada klaster inqiroz holatida bo'lib, inqirozga qarshi shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladi.

2. Past daraja – klasterning beqaror pozitsiyasini aks ettiradi. Operatsion qobiliyatning davom etishiga qaramay, jiddiy xavflar, moliyaviy va ishlab chiqarish jarayonlari ustidan zaif nazorat, qarz mablag'lariga va tashqi tebranishlarga yuqori darajada bog'liqlik mavjud bo'lib, xatarlarga tolerantlik cheklangan.

3. O'rtacha (qabul qilinadigan) daraja – korxonalar nisbatan barqarorlik va boshqaruvni namoyish etadi. Asosiy tahdidlar nazorat qilinadi va moliyaviy

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ko'rsatkichlar tartibga soluvchi chegaralar ichida. Biroq, bozor kon'yunkturasining keskin o'zgarishiga nisbatan zaiflik saqlanib qolmoqda va investitsion va innovatsiya imkoniyatlari cheklangan.

4. Yuqori daraja – korxonalar faoliyatining barqarorligini, tavakkalchilikni boshqarishning samarali mexanizmi mavjudligini, yetarli likvidlik va rentabellikni ko'rsadi. Kompaniya o'zining rivojlanish strategiyasini faol amalga oshirmoqda va barqaror o'sishni namoyish etmoqda.

5. Juda yuqori daraja (optimal) – uning faoliyatining barcha jabhalarida barqarorlik va muvozanatning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Kompaniya kuchli moliyaviy-iqtisodiy salohiyatga ega, tashqi va ichki tahdidlarga samarali qarshi turadi, barqaror rivojlanish, yuqori darajadagi investitsiya va innovatsion faollikni namoyish etadi.

Dissertatsiyaning **“Paxta-to'qimachilik klasterlarining holati va iqtisodiy barqarorligi darajasi tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning huquqiy asoslari, shuningdek, O'zbekistondagi paxta-to'qimachilik klasterlarining umumiy ishlab chiqarish va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Farg'ona viloyatidagi “Fergana Global Textile” MChJ paxta-to'qimachilik klasteri misolida O'zbekiston mintaqalari bo'yicha paxta-to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligi tahlili keltiriladi.

Mamlakatimizda paxta-to'qimachilik sanoatida amalga oshirilayotgan klaster siyosati o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatdi. Ushbu siyosat samarasida mamlakatimizda paxtachilikni rivojlantirishning bir qancha ko'rsatkichlari yaxshilandi. Xususan, 2017-2024-yillarda paxta xomashyosining o'rtacha hosildorligi 46 % ga oshdi. 7 yil davomida 23,3 sentner/ga dan 34,99 sentnerga ko'tarildi (2-jadval). Bundan tashqari, bugungi kunda paxta tolasini mamlakatimizda qayta ishlash ulushi 100 foizni tashkil etadi. Bu O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi ko'p bosqichli, chuqur qayta ishlash jarayonidan o'tib, yakuniy tayyor mahsulot eksport qilinayotganidan dalolat beradi.

2-jadval

O'zbekistonda paxta to'qimachilik sanoatining dinamikasi¹⁰

№	Ko'rsatkichlar	O'/b	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Respublikadagi klasterlarning umumiy soni	dona	1	15	75	96	122	134	144	152
2.	To'liq ishlab chiqarish sikliga ega bo'lgan klasterlar soni	dona	-	3	25	45	62	85	110	121
3	Hosildorlik	s/ga	23,3	25,9	26,87	28,99	33,2	33,8	34,3	34,99
4.	Klasterlar ixtiyoridagi maydon, gektar	ga	-	-	707 140	907783,0	1 mln.	1 mln. 200 ming	1 mln. 560 ming.	1 mln. 590 ming.
5.	Tomchilatib sug'orish tizimiga ega klasterlar soni	dona	-	3	26	45	50	60	104	120
6.	Paxta tolasini qayta ishlash	%	51	60	80	95	98	100	100	100
7.	1 kg paxta tolasining ichki bozordagi narxi	doll.	0,8	1,2	1,4	1,8	2,4	2,5	2,7	2,9

¹⁰ O'zbekiston Respublikasidagi paxta-to'qimachilik klasterlarini o'rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan

2-jadvalda ko'rsatilganidek, klaster rivojlanishi ko'rsatkichlari ijobiy tendentsiyani ko'rsatmoqda. Ammo shuni aytish kerakki, 1 kg paxta tolasining ichki bozordagi narxi boshqa paxta yetishtiruvchi davlatlarga nisbatan juda pastligicha qolmoqda. Misol uchun, Xitoy va Hindistonda bu ko'rsatkich mos ravishda 3,8 va 4,1 ni tashkil qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda klaster qiymat zanjiri yakuniy natijaga – yuqori sifatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga to'liq yo'naltirilmagan. Zanjirning har bir bo'g'inida qo'llanilayotgan texnologiyalar, xomashyo va materiallar ichki va xalqaro bozor talablariga javob beradigan yuqori sifatli yakuniy mahsulotlarni ta'minlay olmaydi. Binobarin, korxonalarining rentabelsizligi va moliyaviy beqarorligi tufayli zanjirning ayrim bo'limlarida bo'shliqlar paydo bo'lmoqda.

O'zbekistonning turli hududlarida sanoat klasterlarining rivojlanishi va barqarorligini baholash uchun asosiy parametrlar: texnologik, moliyaviy barqarorlik va inson resurslaridan foydalangan holda qiyosiy tahlil o'tkazildi:

3-jadval


O'zbekiston hududlarida yetakchi klasterlarining iqtisodiy barqarorligini qiyosiy tahlili¹¹

№	Hudud	To'liq ishlab chiqarish sikliga ega bo'lgan klasterlar soni	Texnik jihozlanish darajasi	Moliyaviy barqarorlik	Kadrlar salohiyati
1.	Farg'ona	25	Yuqori	Barqaror	Yetarli
2.	Qashqadaryo	11	O'rta	O'rtacha	Yetarli emas
3.	Buxoro	15	O'rta - baland	Yuqori	O'rtacha

Klasterni rivojlantirish salohiyatini qiyosiy baholash shuni ko'rsadiki, Farg'ona viloyati har uchala ko'rsatkich bo'yicha ham yetakchi o'rinni egallaydi va milliy sanoat dasturlarini amalga oshirishda hal qiluvchi hudud sifatida qaralishi mumkin. Buxoro yuqori moliyaviy salohiyatga va yetarli darajada texnologik taraqqiyotga ega, ammo kadrlar salohiyatini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, Qashqadaryoda uskunalarni modernizatsiya qilish, sarmoya jalb etish, kadrlar tayyorlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish talab etiladi. Umuman olganda, uchta hududdagi paxta-to'qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkinki, sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash bo'yicha samarali siyosatni amalga oshirish mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish va har bir klasterga tabaqalashtirilgan yondashuvni taqozo etadi.

Farg'ona, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlaridagi tajriba klasterlarining tahlili iqtisodiy barqarorlik darajasida sezilarli farqlarni aniqladi. Misol uchun, Farg'onada ishlab chiqarish barqarorligi yuqori, ammo innovatsion baza zaif; Buxoro cheklangan infratuzilmaga ega, ayniqsa transport logistikasi; Qashqadaryo – eksportga yuqori darajada bog'liq, valyuta xavflariga moyilligi aniqandi (2-rasm).

¹¹ O'zbekistonning uchta viloyatidagi klasterlarni o'rganish asosida muallif tomonidan tuzilgan



2-rasm. Hududlar bo'yicha klasterlarining iqtisodiy barqarorligining integratsiyalashgan indekslarining qiyosiy diagrammasi¹²

Diagramma shuni ko'rsadiki, Farg'ona va Buxoro mintaqalar orasida eng yuqori integratsiyalashgan iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlariga ega. Ularning ballari taxminan teng (0,6-0,8 atrofida) bu hududlarda iqtisodiy xavf-xatarlardan yuqori darajada himoyalanganligi va paxta-to'qimachilik majmuasi barqarorligidan dalolat beradi. Qashqadaryoda esa integratsiyalashgan indeks ancha past (0,45 atrofida) bu mintaqaning klasterlari iqtisodiy barqarorlik bo'yicha orqada qolayotganidan dalolat beradi. Bu texnologik modernizatsiyaning past darajasi, cheklangan investitsiyalar yoki eksport faolligining pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Dissertatsiya tadqiqotining obyekti sifatida sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash uchun O'zbekistondagi ilg'or paxta-to'qimachilik klasterlaridan biri tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida "FERGANA GLOBAL TEXTILE" MCHJ paxta-to'qimachilik klasterining moliyaviy ko'rsatkichlari va xo'jalik faoliyati tahlil qilindi.

Integratsiyalashgan iqtisodiy barqarorlik indeksi yillar kesimida hisoblab chiqilgan:

$$I_t = \sum_{i=1}^6 w_i \cdot X_{i,t} \quad (1)$$

Muallif quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan iqtisodiy barqarorlik indeksini yaratishga asoslangan metodologiyani taklif qiladi:

Integratsiyalashgan indeks formulasi:

$$I_{ib} = w_1 \cdot I_m + w_2 \cdot I_{i/ch} + w_3 \cdot I_{mehnat} + w_4 \cdot I_{axb} + w_5 \cdot I_{innov.} + w_6 \cdot I_{eko} \quad (2)$$

Bu yerda:

I_{ib} – klasterning iqtisodiy barqarorligining integral ko'rsatkichi,

I_m – moliyaviy barqarorlik indeksi,

$I_{i/ch}$ – ishlab chiqarish barqarorligi indeksi,

I_{mehnat} – mehnat barqarorligi indeksi,

I_{axb} – axborot barqarorligi indeksi,

$I_{innov.}$ – innovatsion barqarorlik indeksi,

¹² Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

I_{eko} – ekologik barqarorlik indeksi,
 w_i – ekspert baholashi asosida aniqlangan tegishli komponentning vazn koeffitsienti, bunda:

$$\sum_{i=1}^6 w_i = 1. \quad (3)$$

Ekspert baholash asosida quyidagi qiymatlar olindi:

$$I_{ib} = 0.25 \cdot I_m + 0.2 \cdot I_{ch} + 0.15 \cdot I_{mehnat} + 0.1 \cdot I_{axb} + 0.2 \cdot I_{innov.} + 0.1 \cdot I_{eko} \quad (4)$$

“Fergana Global Textile” MChj iqtisodiy barqarorligining umumiy integral ko‘rsatkichi asosida ushbu ko‘rsatkichlarni umumiy jadvalga keltiramiz.

4-jadval

“Fergana Global Textile” MChj iqtisodiy barqarorligining umumiy integral ko‘rsatkichi dinamikasi¹³


№	Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1	Moliyaviy barqarorlikning integral ko‘rsatkichi	0,59	0,61	0,65	0,7	0,91	0,89
2	Ishlab chiqarish barqarorligining integral ko‘rsatkichi	0,4	0,6	0,7	0,6	0,5	0,69
3	Mehnat barqarorligining integral ko‘rsatkichi	0,49	0,60	0,58	0,61	0,69	0,72
4	Ekologik barqarorlikning integral ko‘rsatkichi	0,05	0,14	0,2	0,19	0,29	0,33
5	Axborot barqarorligining integral ko‘rsatkichi	0,2	0,23	0,37	0,44	0,49	0,58
6	Innovatsion barqarorlikning integral ko‘rsatkichi	0,25	0,31	0,37	0,43	0,59	0,78
	Iqtisodiy barqarorlik integral ko‘rsatkichi	0,38	0,46	0,51	0,54	0,63	0,69

2020 yildan 2025 yilgacha bo‘lgan davrda “Fergana Global Textile” MChjning umumiy integral iqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichi barqaror ijobiy dinamikani namoyon etdi: 2020-yilda 0,38 dan 2025-yilda 0,69 ga ko‘tarilib, 6 yil davomida klasterning iqtisodiy barqarorlik tizimi umumiy mustahkamlanganligi deyarli 77 foizni ko‘rsatdi. Integratsiyalashgan ko‘rsatkichning o‘shishiga moliyaviy, innovatsion va mehnat komponentlari eng katta hissa qo‘shdi. Moliyaviy barqarorlik 2020-yildagi 0,59 dan 2024-yilda 0,9 cho‘qqisiga ko‘tarildi, so‘ngra 2025-yilda 0,8 ga qisqardi, bu klaster moliyaviy jarayonlarining kichik tebranishlar bilan yuqori barqarorligini namoyon etdi. Innovatsion barqarorlik ko‘rib chiqilayotgan davrda 0,25 dan 0,78 gacha ta’sirchan o‘shishni ko‘rsatdi, bu yangi texnologiyalarning faol joriy etilishi va tadqiqot va ishlanmalar yo‘nalishlarining rivojlanishini aks ettiradi. Mehnatni muhofaza qilish ham doimiy ravishda takomillashtirildi, bu 0,49 dan 0,71 gacha ko‘tarildi, bu ishchilarni himoya qilish yaxshilanganligini, mehnatni muhofaza qilish tizimining rivojlanishini va xodimlarning malakasining o‘shishini ko‘rsadi.

¹³ “FERGANA GLOBAL TEXTILE” MChJ ma’lumotlari asosida hisoblangan.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash metodologiyasini takomillashtirish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida paxta-to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash metodologiyasi takomillashtirildi. Xususan, O‘zbekistondagi paxta-to‘qimachilik klasterlarida xavflarni (5x5 Matritsa) tartiblash va ustuvorlik berish metodologiyasini asoslandi. Sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligi dinamikasining prognoz stsenariylari (“Fergana Global Textile” MChJ misolida) ko‘p faktorli ekonometrik model asosida ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasida paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Paxta-to‘qimachilik klasterining iqtisodiy barqarorligi darajasini kompleks tahlil qilish va diagnostika qilish uchun taklif etilayotgan metodologiya quyidagicha (3-rasm):




3-rasm. Sanoat klasterining iqtisodiy barqarorligi darajasini kompleks tahlil qilish va diagnostika qilish metodologiyasi¹⁴

¹⁴ Muallif tomonidan modellashtirilgan.

Har bir bosqichda iqtisodiy barqarorlikning oltita asosiy komponentlarini kompleks baholash amalga oshiriladi: moliyaviy, ishlab chiqarish, inson resurslari, IT va innovatsiyalar hamda ekologik komponentlar. Bu nafaqat joriy iqtisodiy va texnologik parametrlarni, balki inson kapitali, jarayonlarni raqamlashtirish va atrof-muhitga ta'sirni ham hisobga olish imkonini beradi.

Sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash algoritmi sanoat klasterlari duch keladigan barqarorlik va xavflarni, shu jumladan ularning iqtisodiy o'zgarishlar va inqirozlarga moslashish qobiliyatini tahlil qilish va baholash uchun mo'ljallangan usullar majmuasidir. Ushbu algoritmning asosiy maqsadi klasterning uzoq muddatli barqarorligi va samaradorligiga tahdidlarni aniqlashdir (4-rasm).



4-rasm. Sanoat klasterining iqtisodiy barqarorligini baholash algoritmi¹⁵

¹⁵ Muallif tomonidan tuzilgan.

Algoritm klasterning iqtisodiy barqarorligi holatini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishdan boshlanadi. Ushbu bosqichda klaster barqarorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy parametrlar, jumladan moliyaviy, ishlab chiqarish, kadrlar, innovatsion va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi. Taklif etilayotgan algoritm paxta-to'qimachilik klasterining iqtisodiy barqarorligini baholash va ta'minlashga kompleks va tizimli yondashishni ta'minlaydi, bu tashqi ta'sirlar, texnologik o'zgarishlar va ekologik mas'uliyat talablari ortib borayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Klasterning faoliyatida risklarni reytinglash va ustuvorlashtirish samarali risklarni boshqarishning muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon tashkilotlarga resurslarni oqilona taqsimlash, eng muhim tahdidlarga e'tibor qaratish hamda umumiy barqarorlik darajasini oshirish imkonini beradi.

5×5 risklar matritsasi sanoat korxonalarida risklarni baholash va ustuvorlashtirishda keng qo'llaniladigan vositalardan biri bo'lib, u ikki asosiy mezon – riskning ehtimolligi (Probability) va uning ta'sir darajasi (Impact) asosida baholashni nazarda tutadi. Mazkur matritsa risklarni tizimli ravishda tasniflash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun qulay vizual asosni ta'minlaydi (5-rasm).

Matritsa ehtimollikning besh darajasi ("kamdan-kam hollarda" dan "deyarli muqarrar" gacha) hamda oqibatlarining besh darajasi ("ahamiyatsiz" dan "halokatli" gacha) dan iborat bo'lgan katakli jadval ko'rinishida ifodalanadi.

Ta'sir darajasi →

	Kichik 1	Minimal 2	Muhim 3	Kritik 4	Falokat 5
Mumkin 5	O'rtacha 5	Yuqori 10	Juda yuqori 15	Kritik 20	Kritik 25
Ehtimol 4	O'rtacha 4	O'rtacha 8	Yuqori 12	Juda yuqori 16	Kritik 20
O'rtacha 3	Past 3	O'rtacha 6	O'rtacha 9	Yuqori 12	Juda yuqori 15
Kam 2	Juda past 2	Past 4	O'rtacha 6	O'rtacha 8	Yuqori 10
Kamdan-kam 1	Juda past 1	Juda past 2	Past 3	O'rtacha 4	O'rtacha 5

↑ Ehtimollik

5-rasm. Sanoat klasterlari risklarini boshqarishda risklar matritsasi¹⁶

Rasmda ko'rsatilgan rangli belgilash 5×5 risklarni baholash matritsasi shablonida aniqlangan risklarning ehtimolligi va ta'sir darajasini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda yuqori darajadagi risklar qizil rang bilan, o'rtacha darajadagi risklar sariq (yoki amber) rang bilan, past darajadagi risklar esa yashil rang bilan belgilanadi. Matritsadagi har bir katak risk darajasiga mos keladi va u past darajadan ekstremal darajagacha bo'lgan bahoni ifodalaydi. Risk bahosi quyidagicha hisoblanadi:

¹⁶ Risk matritsasiidan foydalanish asosida muallif tomonidan moslashtirilgan.

$$O_p = P \times I \quad (5)$$

Bu yerda:

O_p – riskni baholash;

P – risk ehtimoli;

I – risk ta'siri.

Biz ushbu formulani sanoatning o'ziga xos xususiyatlarini, tarmoqlararo hamkorlik darajasini, institutsional sharoitlarni va mintaqaviy tafovutlarni hisobga olgan holda moslashtirdik. Yakuniy moslashtirilgan risk formulasi quyidagicha:

$$O_p = [P_{\text{baz}} \times (1 - \alpha_1 S_{\text{tar}} - \alpha_2 S_k)] \times [C_{\text{baz}} \times (1 + \beta_1 D_{\text{inst}} + \beta_2 D_{\text{reg}})] \quad (6)$$

Bu yerda:

• P_{baz} – tahdidning ekspert yoki statistik ma'lumotlar asosida aniqlangan bazaviy ehtimolligi;

• S_{tar} – tarmoq barqarorligining normallashtirilgan ko'rsatkichi (0–1);

• S_k – tarmoqlararo kooperatsiya darajasini ifodalovchi ko'rsatkich (0–1);

• α_1, α_2 – mos ravishda omillarning ta'sir darajasini aks ettiruvchi vazn koeffitsiyentlari;

• C_{baz} – tahdid oqibatlarining bazaviy darajasi;

• D_{inst} – institutsional zaiflik indeksi (1 – IIP);

• D_{reg} – mintaqaviy nomutanosiblik indeksi (0–1);

• β_1, β_2 – mos ravishda omillar ahamiyatini ifodalovchi vazn koeffitsiyentlari.

Turli darajalar riskning ehtimolligi va ta'sirini qanday ifodalashini yaxshiroq tushunish maqsadida tahlil natijalarini talqin qilish uchun quyidagi sonli qiymatlar va ularning mazmuni keltiriladi:

1–4: Qabul qilinadigan daraja – qo'shimcha choralar talab etilmasligi mumkin, mavjud nazorat mexanizmlarini saqlab qolish tavsiya etiladi.

5–9: Qoniqarli daraja – riskni qo'shimcha tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

10–16: Yo'1 qo'yiladigan daraja – riskni kamaytirish bo'yicha takomillashtirish strategiyalarini o'z vaqtida ko'rib chiqish zarur.

17–25: Qabul qilib bo'lmaydigan daraja – faoliyatni to'xtatish yoki keskin cheklash hamda zudlik bilan choralar ko'rish talab etiladi.

Mazkur baholash mezonlari klasterlarda mavjud risklarni boshqarish mexanizmlarini zaruriyatga qarab takomillashtirish hamda menejerlar tomonidan keyingi amaliy choralarni belgilashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarida 5x5 matritsasidan foydalangan holda xavflarni kompleks baholash asosiy tahdidlar logistika, energiya iste'moli va xodimlarni boshqarish sohalarida jamlangan degan qat'iy xulosaga olib keldi. Bu nafaqat alohida korxonalar darajasida maqsadli chora-tadbirlarni, balki sanoat birlashmalari va hukumat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash siyosatini ham talab qiladi. Bunday yondashuv klasterni barqaror rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va ularning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash uchun asos yaratadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida vektor avtoregressiv (VAR) modeli qurildi, u bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasida qisqa muddatli munosabatlar mavjudligini aniqlaydi va mustaqil omillar ta’sirida bog‘liq o‘zgaruvchi uchun bashoratli qiymatlarni oladi.

Modelning umumiy baholash shuni ko‘rsadiki, u 2020q3 dan 2025q4gacha bo‘lgan davr uchun 22 ta choraklik kuzatuvlarga asoslangan. Log Likelihood qiymati 350,814 ni tashkil etadi, bu yuqori va modelning ma’lumotlarga yaxshi mos kelishini ko‘rsadi. AIC (-26,89), HQIC (-26,25) va SBIC (-24,16) ma’lumotlarga moslik mezonlari juda past salbiy qiymatlarga ega, bu modelning yuqori axborot mazmunini va uning murakkabligi va moslik sifati o‘rtasidagi optimal muvozanatni ko‘rsadi. Bundan tashqari, past FPE (6.23e-07) va Det (Sigma_ml) (7.70e-09) modelning yuqori bashorat qilish qobiliyatini va minimal taxminiy xatolarni tasdiqlaydi.

Regression tahlil natijalari shuni ko‘rsadiki, iqtisodiy barqarorlik dinamikasi (\ln_Y) sezilarli darajada o‘zining kechikishlariga ham, barqarorlikning asosiy omillarining kechikishlariga ham bog‘liq. VAR modelda keltirilgan barcha ishonchlilik testlari bizning VAR modelimiz qabul qilinishi mumkinligini ko‘rsadi.

Taqdim etilgan avtoregressiv VAR model jadvali natijalariga asoslanib, quyidagi model formulasi tuzildi:

$$\ln_Y(t) = -1.188 + 0.357\ln_Y_{(t-1)} + 0.461X_{1(t-1)} + 0.144X_{2(t-1)} + 0.632X_{3(t-1)} + \varepsilon_{(t)} \quad (7)$$

Qisqartirilgan regressiya modelining tahlili shuni ko‘rsatdiki, korxonalarining iqtisodiy barqarorligi (\ln_Y) sezilarli darajada o‘zining dinamikasiga ham, kechikishlar bilan barqarorlikning asosiy tarkibiy qismlariga ham bog‘liq. Olingan hisob-kitoblarga ko‘ra, bir davrdagi kechikish bilan innovatsion barqarorlik eng katta ijobiy ta’sir ko‘rsadi: bu ko‘rsatkichning bitta shartli birlikka oshishi iqtisodiy barqarorlikning taxminan 63% ga oshishiga olib keladi. Moliyaviy barqarorlik ham sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsadi (bir birlik o‘sishi bilan taxminan 46% o‘shish), umumiy iqtisodiy barqarorlikni shakllantirishda moliyaviy barqarorlikning asosiy rolini ta’kidlaydi.

Ishlab chiqarish barqarorligi o‘rtacha ijobiy ta’sir ko‘rsadi: bu ko‘rsatkichning bir birlikka o‘sishi iqtisodiy barqarorlikning taxminan 14% ga oshishiga yordam beradi. Aksincha, axborot barqarorligi kechiktirilgan salbiy ta’sir ko‘rsadi: uning ikki davr oldin o‘sishi iqtisodiy barqarorlikning o‘rtacha 29% ga pasayishiga olib keladi, bu raqamlashtirish yoki vaqtinchalik tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, modellashtirish natijalari sanoat klasterlarining barqaror iqtisodiy barqarorligini ta’minlash uchun innovatsion va moliyaviy komponentlarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish, shuningdek, axborot texnologiyalarini joriy etish uchun vaqt xarajatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida biz VAR modelimizni diagnostik baholashni o‘tkazamiz.

Rivojlanish ssenariysini tuzish uchun respublika paxta-to‘qimachilik klasterlarining 2017-2025 yillarga mo‘ljallangan asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan (5-jadval).

Paxta-to‘qimachilik klasterlarining 2017-2025 yillar davomidagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (regression tahlil uchun ma’lumotlar)¹⁷

Yil	Ishlab chiqarish hajmi, million dollar (Y)	Eksport hajmi, million dollar (X1)	Asosiy kapitalga investitsiyalar, million dollar (X2)	Xodimlar soni, ming kishi (X3)
2017	301	60,2	9,3	45
2018	1609	386,4	80,45	131
2019	1889	472,5	76	254
2020	2450	637	94	369
2021	3478	894,28	259	419
2022	3793	1024,11	689	471
2023	4312	1207,36	1075	490
2024	4801	1380,7	1102,1	584
2025	5123	1439,44	1206,3	625

2017–2025-yillar davomida paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 301 mln dollardan 5 123 mln dollargacha oshdi, ya’ni 17 martadan ko‘proq o‘sdi. Bunday dinamika ishlab chiqarish salohiyatining sifat jihatdan kengayganini, paxtani chuqur qayta ishlash darajasi oshganini hamda klasterlarning xomashyo modelidan eksportga yo‘naltirilgan sanoat ishlab chiqarishi modeliga o‘tayotganini ko‘rsadi. Eng jadal o‘shish 2020-yildan keyin kuzatilgan bo‘lib, bu pandemiyadan keyingi davrda investitsiya siyosatining faollashuvi va klasterlar o‘rtasidagi kooperatsiyaning kengayishi bilan mos keladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi Y hamda X_1 , X_2 , X_3 omillar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik aniqlangan.

Barcha bog‘liqliklar ijobiy va juda kuchli hisoblanadi. Korrelyatsion tahlil ishlab chiqarish hajmi va paxta-to‘qimachilik klasterlari rivojlanishining asosiy omillari o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, omilli ko‘rsatkichlar o‘rtasida ham yuqori korrelyatsiya qiymatlari aniqlanib, bu modelda multikollinearlik mavjudligini ko‘rsadi. Ushbu holat klaster rivojlanishining kompleks va o‘zaro bog‘liq xususiyati bilan izohlanadi. Mazkur jihat regressiya tahlili natijalarini talqin qilishda inobatga olindi.

Regressiya modelining asosiy statistik xususiyatlari¹⁸

Korrelyatsiya koef. R	0,988829991
R-kvadrat	0,977784751
Normallashtirilgan R-kvadrat	0,968055602
Standart xato	71,48036586
Kuzatuvlar soni	9

Dispersiya tahlili regressiya modeli umuman olganda statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi ($F = 1369,79$; $p < 0,001$). Ishlab chiqarish hajmidagi deyarli barcha

¹⁷ “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining rasmiy ma’lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁸ Muallif tomonidan MS Excel dasturiy ta’minot yordamida ishlab chiqilgan.

o'zgarishlar modelga kiritilgan omillar bilan izohlanadi. Bu modelning yuqori tushuntirish qobiliyatiga ega ekanligini va undan prognoz hamda ssenariy hisob-kitoblarida foydalanish to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish hajmi oshishining asosiy omillariga bog'liqligini ifodalovchi regressiya modeli yuqori darajadagi adekvatlik va statistik ishonchlilik bilan tavsiflanadi. Ko'p omilli korrelyatsiya koeffitsienti 0,989 ga teng bo'lib (6-jadval), bu bog'liq o'zgaruvchining haqiqiy va hisoblangan qiymatlari o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsadi. Determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,977$ bo'lib, ishlab chiqarish hajmidagi variatsiyaning 97,7 % qismi modelga kiritilgan omillar orqali tushuntirilishini anglatadi. Shu bilan birga, normallashtirilgan determinatsiya koeffitsienti (0,968) modelda ortiqcha o'zgaruvchilar yo'qligini va izohlovchi omillarning to'g'ri tanlanganligini tasdiqlaydi.

Jadval ma'lumotlariga asoslanib, regressiya tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$Y = 100,35 + 4,31X_1 - 0,54X_2 \quad (8)$$

bu yerda:

Y – paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mln dollar;

X_1 – eksport hajmi, mln dollar;

X_2 – asosiy kapitalga investitsiyalar, mln dollar.

Olingan regressiya tenglamasi ishlab chiqarish hajmining paxta-to'qimachilik klasterlarida eksport faolligi va investitsiya jarayonlariga bog'liqligini aks ettiradi. Koeffitsientlarning ishorasi va qiymatlari eksport omilining ustuvor rolini, shuningdek investitsiyalarning ta'siri qisqa muddatda ma'lum cheklovlarga ega ekanligini ko'rsadi.

Asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi ekonometrik modellashtirish natijalarini tasdiqlaydi. Unga ko'ra, ishlab chiqarish hajmiga asosiy ta'sir eksport ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi, investitsiyalar va bandlik esa vaqt bo'yicha kechikish (lag) va tarkibiy cheklovlar bilan ta'sir ko'rsadi.

Ekonometrik model va ssenariy yondashuvi asosida 2026–2028-yillar uchun paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi prognozi amalga oshirildi.

7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, bazaviy ssenariy rivojlanishning inertsiya yo'nalishini aks ettiradi, optimistik va pessimistik ssenariylar esa tashqi va ichki omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ishlarni hisobga oladi.

7-jadval

Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining prognoz qiymatlari, mln dollar¹⁹

Yillar	Bazaviy ssenariy	Optimistik ssenariy	Pessimistik ssenariy
2026*	6601,93	6742,03	6461,83
2027*	7243,99	7384,09	7103,89
2028*	7886,03	8026,13	7745,93


¹⁹ Muallif tomonidan MS Excel dasturiy ta'minot yordamida ishlab chiqilgan.

Ssenariy tahlili shuni ko'rsadiki, 2028-yilda paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish hajmining mumkin bo'lgan qiymatlari diapazoni 7,74 mlrd dollardan 8,03 mlrd dollargacha bo'lishi mumkin. Bu esa tarmoqning eksport va investitsiya omillariga yuqori darajada sezgirligini; o'sish zaxirasi mavjudligini; klasterlarni faol institutsional qo'llab-quvvatlash zarurligini bildiradi.

Olingan prognoz baholari shuni tasdiqlaydiki, paxta-to'qimachilik klasterlarining o'rta muddatli istiqboldagi barqaror rivojlanishi eng avvalo eksportga yo'naltirilganlik darajasi va investitsiya siyosatining samaradorligiga bog'liq. Shu bilan birga, salbiy ssenariylar tarmoqning stagnatsiyasiga olib kelmaydi, balki faqat o'sish sur'atlarining sekinlashishini anglatadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari (PTK) O'zbekiston iqtisodiyotining agro-sanoat transformatsiyasida muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida ushbu soha sezilarli rivojlanish sur'atiga ega bo'ldi. Bu esa mamlakat ichida paxtani qayta ishlash hajmining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va to'qimachilik mahsulotlari eksportining ko'payishida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, texnologik ortda qolish, investitsiyalar yetishmasligi va innovatsion faollikning cheklanganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Turkiya, Hindiston va Bangladesh kabi yetakchi davlatlar to'qimachilik klasterlarini muvaffaqiyatli rivojlantirib, bunda raqamlashtirish, barqaror ishlab chiqarish, qo'shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirish hamda xalqaro kooperatsiyaga alohida e'tibor qaratmoqda. Ularning tajribasi O'zbekiston uchun ham foydali bo'lishi mumkin (6-rasm).



6-rasm. O'zbekiston, Turkiya, Bangladesh va Hindistonda to'qimachilik sanoatining YAIMdagi ulushi taqqoslanishi (%)²⁰

6-rasm shuni ko'rsadiki, O'zbekiston (ko'k chiziq) 2020-yildagi taxminan 5,1 % dan 2024-yilda 9,8 % gacha YAIMda to'qimachilik sanoati ulushining barqaror va izchil o'sishini namoyish etmoqda. Besh yil ichida deyarli ikki baravar o'sish davlat tomonidan to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish, paxtani chuqur qayta ishlashni rag'batlantirish va xomashyo eksportini tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan almashtirishga qaratilgan maqsadli siyosat natijasidir. Ushbu tendensiya tarmoqning mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsadi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston yetakchi

²⁰ International Textile Manufacturers Federation. <https://www.itmf.org/>

davlatlar bilan farqni faol ravishda qisqartirib, tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining tez o‘shishi hisobiga tarmoqning YAIMga qo‘shayotgan hissasini bosqichma-bosqich oshirib bormoqda.

Shunday qilib, davlat siyosati choralari kompleks amalga oshirish, biznesning faol ishtiroki va investitsiyalarni jalb etish sharoitida paxta-to‘qimachilik klasterlari mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo‘shayotgan hissasini sezilarli darajada oshirishi, O‘zbekistonning jahon to‘qimachilik bozoridagi mavqei mustahkamlashi hamda hududlarda barqaror bandlikni shakllantirishi mumkin. Respublikada ularning keyingi rivojlanish istiqbollari juda yuqori va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishda strategik ahamiyatga ega deb baholanadi.

XULOSA

1. Klaster iqtisodiy barqarorligi mavjud ilmiy yondashuvlar va ushbu tushunchaning talqinlarini umumlashtirgan holda klaster iqtisodiy tizimining integral holati sifatida ta’riflanishi mumkin. U klaster ishtirokchilarining faoliyat barqarorligini saqlab turish, ichki va tashqi omillar ta’siriga moslashish, strategik va tijorat maqsadlarini samarali amalga oshirish hamda barqaror va uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlash qobiliyatini aks ettiradi.

2. Nazariy va amaliy yondashuvlarni umumlashtirish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash konsepsiyasi risklarni boshqarish, barqarorlikni oshirish va ularning uzoq muddatli rivojlanishini rag‘batlantirishda muhim strategik vosita hisoblanadi. Ushbu konsepsiyani samarali amalga oshirish klaster tizimi ishtirokchilari va davlat boshqaruvi organlarining muvofiqlashtirilgan harakatlarini, zamonaviy tahliliy usullardan foydalanishni hamda iqtisodiy barqarorlik darajasini muntazam monitoring qilishni talab etadi.

3. Taklif etilgan konsepsiyani amalga oshirish bir qator muhim natijalarga erishish imkonini beradi. Jumladan, sanoat klasterlarining ichki va tashqi ta’sirlarga chidamliligini mustahkamlash, iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish, klasterlarning texnologik va innovatsion salohiyatini rivojlantirish, bandlikni ko‘paytirish va hududlarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish.

4. Muallif tomonidan iqtisodiy barqarorlikning integral indeksini shakllantirishga asoslangan metodologiya taklif etilgan bo‘lib, u quyidagi bloklarni o‘z ichiga oladi: ishlab chiqarish barqarorligi (I1), moliyaviy-investitsion barqarorlik (I2), kadrlar xavfsizligi (I3), axborot barqarorligi (I4), innovatsion faollik (I5), ekologik moslashuvchanlik (I6).

5. Sanoat klasterlarining iqtisodiy barqarorligini baholash algoritmi – bu sanoat klasterlari duch kelayotgan barqarorlik va risklarni tahlil qilish hamda baholashga qaratilgan usullar va tartiblar majmui bo‘lib, ularning iqtisodiy o‘zgarishlar va inqirozlar sharoitida moslashish qobiliyatini ham baholaydi. Bunday algoritmnining asosiy maqsadi klasterning uzoq muddatli barqaror faoliyatiga tahdid soluvchi omillarni aniqlashdan iborat.

6. O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlarida 5×5 matritsa usuli asosida risklarni kompleks baholash shuni ko‘rsatdiki, asosiy tahdidlar logistika, energiya

xarajatlari va kadrlar ta'minoti sohalarida jamlangan. Bu esa nafaqat alohida korxonalar darajasida aniq choralarni, balki tarmoq assotsiatsiyalari va davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash siyosatini ham talab qiladi. Bunday yondashuv klasterlarning barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va ularning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash uchun asos yaratadi.

7. Ko'p omilli ekonometrik model natijalariga ko'ra, iqtisodiy barqarorlikka eng katta ta'sir innovatsion barqarorlik (koeffitsient 0,63; $p=0,002$), moliyaviy barqarorlik (0,46; $p=0,000$) va ishlab chiqarish barqarorligi (0,14; $p=0,002$) tomonidan ko'rsatiladi. Bu esa ushbu yo'nalishlarning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim ahamiyatini ko'rsadi.

8. Farg'ona va Buxoro hududlari taqdim etilgan mintaqalar orasida iqtisodiy barqarorlikning integral indeksi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni (0,7–0,8) namoyish etadi, bu esa paxta-to'qimachilik klasterlarining yuqori darajada himoyalangan va barqaror faoliyat yuritayotganini ko'rsadi. Qashqadaryo hududi esa pastroq indeksga (taxminan 0,45) ega bo'lib, bu yerda klasterlarning iqtisodiy barqarorligi darajasi nisbatan past ekanligini bildiradi; bu texnologik modernizatsiya darajasining pastligi, investitsiyalarning cheklanganligi yoki eksport faolligining kamligi bilan izohlanishi mumkin.

9. Davlat siyosati choralari kompleks amalga oshirish, biznesning faol ishtiroki va investitsiyalarni jalb etish sharoitida paxta-to'qimachilik klasterlari mamlakat yalpi ichki mahsulotiga qo'shayotgan hissasini sezilarli darajada oshirishi, O'zbekistonning jahon to'qimachilik bozoridagi mavqeini mustahkamlashi va hududlarda barqaror bandlikni ta'minlashi mumkin. Ularning respublikadagi rivojlanish istiqbollari juda yuqori va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishda strategik ahamiyatga ega.

10. Olingan prognoz qiymatlari shuni tasdiqlaydiki, O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlarining o'rta muddatli istiqboldagi barqaror rivojlanishi eng avvalo eksportga yo'naltirilganlik darajasi va investitsiya siyosatining samaradorligiga bog'liq. Shu bilan birga, salbiy ssenariylar tarmoqning stagnatsiyasiga olib kelmaydi, balki faqat o'sish sur'atlarining sekinlashishini anglatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.23.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХОЛИКОВА РУХСОРА САНЖАРОВНА

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ
ПРОМЫШЛЕННЫХ КЛАСТЕРОВ
(На примере хлопково-текстильных кластеров)**

08.00.03 – Экономика промышленности

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована под номером B2024.3.DSc/Iqt741 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английском) размещен на веб-странице научного совета (tdiu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант: Махмудов Носир Махмудович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Гулямов Саидахор Саидахмедович
доктор экономических наук, академик
Турсунходжаев Марат Лутфуллаевич
доктор экономических наук, профессор
Назарова Фотима Хакимовна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Защита диссертации состоится в 14⁰⁰ «22» 05 2026 года в _____ на заседании научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49, Тел.: (71) 239-28-72, Факс: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный № 1384). Адрес: 100066, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49, Тел.: (71) 239-28-72, Факс: (71) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан « _____ » _____ 2026 года

(реестр протокола рассылка № _____ от « _____ » _____ 2026 года)



Ш.Э. Синдаров
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Ж.С. Файзуллаев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Т.С. Кучкаров
Председатель Научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотации диссертации доктора экономических наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Как показывает мировая практика, до сегодняшнего дня промышленные кластеры были развиты во многих отраслях экономики практически во всех странах, независимо от уровня их экономического развития. В развитых странах ЕС, США они стали естественным этапом в эволюции методов промышленного производства, в развивающихся странах, таких как Китай, Россия, Индия, Казахстан кластеры являются основным способом достижения мирового уровня в формировании различных секторов экономики и выхода на международные рынки. Согласно данным международных источников¹, в мире насчитывается более 10 000 промышленных кластеров, включая как крупные агломерации, так и мелкие индустриальные объединения.

В настоящее время, в целях изучения фундаментальных основ развития промышленных кластеров и определения их влияния на экономический рост экономики страны проводятся многочисленные исследования во всем мире. Одним из приоритетных направлений в этой области является повышение эффективности хлопково-текстильной промышленности путем обеспечения экономической устойчивости, направленных на выявление и поиск решений проблемы и угроз, которые в свою очередь являются основным препятствием для развития этой отрасли. Современная экономика сталкивается с вызовами, связанными с глобальной нестабильностью, усилением конкуренции, санкционным давлением, технологическими трансформациями и геополитической напряжённостью. В этих условиях возрастает актуальность вопроса обеспечения экономической устойчивости, особенно применительно к стратегическим структурам – промышленным кластерам, которые формируют ядро производственной и инновационной деятельности в национальной экономике.

В Узбекистане в целях обеспечения экономической устойчивости промышленных кластеров, прежде всего, определены задачи по усилению кооперации участников кластеров и углублению локализации, развитию инженерно-коммуникационной и дорожно-транспортной инфраструктуры, а также повышению инвестиционного и экспортного потенциала посредством специальных экономических и промышленных зон. На практике государственная политика в данном направлении институционально укрепляется и способствует стабилизации производственных цепочек за счёт координации промышленной кооперации и государственных закупок. В частности, «Агентство будет нести ответственность за развитие производственных цепочек, внедрение рыночных механизмов и поддержку локализации производства»². Вместе с тем официальная статистика отражает масштабы экономической активности кластеров: в 2025 году по кластерным

¹ Данные из источника: World Economic Forum. https://netl.doe.gov/sites/default/files/netl-file/22CM_GS_Stark.pdf?utm_source

²https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi_sanoat_kooperaciyasi_va_davlat_haridlari_-_yagona_boshqaruv_ostida?utm_source. “Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari”

структурам системно учитываются объёмы промышленной продукции (без НДС и акцизов), инвестиции и другие показатели³. Из этого следует, что для эффективной реализации указанных задач и мероприятий особую актуальность приобретают научные исследования, направленные на разработку институциональных механизмов устойчивости кластеров, выявление их финансово-экономических драйверов, а также оценку результативности КРІ.

Данное диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, установленных в нормативно-правовых актах, в частности в указах Президента Республики Узбекистан: № УП-16 от 30 января 2025 года «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в Год охраны окружающей среды и «зелёной экономики», № УП-37 от 21 февраля 2024 года «О Государственной программе «Год поддержки молодёжи» по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030», № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан – 2030», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в постановлениях: № ПП-23 от 26 января 2023 года «О дополнительных мерах по дальнейшей поддержке деятельности производителей хлопкового сырья», № УП-2 от 10 ноября 2021 года «О мерах по совершенствованию системы финансирования выращивания хлопкового сырья и затрат на его уборку», № ПП-5285 от 14 декабря 2017 года «О мерах по ускоренному развитию текстильной и швейно-трикотажной промышленности», № ПП-3408 от 28 ноября 2016 года «О мерах по коренному совершенствованию системы управления хлопковой отраслью», № ПП-2687 от 21 декабря 2016 года «О программе мер по дальнейшему развитию текстильной, швейной и трикотажной промышленности на 2017–2019 годы», а также в постановлениях Кабинета Министров: № 733 от 4 декабря 2021 года «Об утверждении Положения о порядке организации деятельности хлопково-текстильных кластеров», № 397 от 22 июня 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию хлопково-текстильного производства», № 744 от 9 сентября 2019 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию производства хлопка и текстильной продукции», № 53 от 25 января 2018 года «О мерах по внедрению современных форм организации хлопково-текстильного производства», а также в иных нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий 1. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики», в частности, подпунктом «Развитие секторов экономики и социальной сферы, исследование новых закономерностей повышения конкурентоспособности национальной экономики».

³ https://stat.uz/img/news/miz_uz_p55913.pdf?utm_source. “Maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va ...”

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴.

